



## JADID ADABIYOTIDA MILLAT VA MILLIY MASALALARNING YORITILISHI

**Mo'ydinova Irodaxon Abdumannob qizi**  
Qo'qon universiteti talabasi  
buoishamoydinova.1177@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadidlarning adabiy faoliyati, ularning adabiyotda xalq dardi, diniy va milliy muammolarning keng va batafsil yoritilishi haqida so'z boradi. Shuningdek maqola davomida jadidlar adabiy faoliyatining bugungi kun uchun qay darajada foyda bergani to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Millat, milliy masala, badiiy asar, Sharq va G'arb adabiyoti, ilm, jaholat, taraqqiyot, urf-odatlar, davr muammolari, yangi qahramon, milliy birlik, roman, ma'naviyat, jamiyat, ilm, ma'rifat.

**Аннотация.** В этой статье рассказывается о литературной деятельности джадидов, их широко и подробном освещении в литературе народной боли, религиозных и национальных проблем. В статье также будет представлена информация о том, насколько полезна литературная деятельность джадидов на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** нация, национальный вопрос, художественное произведение, литература Востока и Запада,

наука, невежество, прогресс, традиции, проблемы эпохи, новый герой, национальное единство, роман, духовность, Общество, Наука, просвещение.

**Abstract.** This article will talk about the literary activities of the jadids, their extensive and detailed coverage of folk troubles, religious and national problems in literature. Also during the article, information is given about the extent to which the literary activities of the jadids have benefited for today.

**Key words:** Nation, national issue, fiction, eastern and Western literature, science, ignorance, progress, customs, problems of the era, new hero, national unity, novel, spirituality, Society, Science, enlightenment.

Mazkur maqolani prezidentimizning quyidagi so'zlari bilan boshlamoqchiman. "Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" degan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Darhaqiqat bugun kuchli iqtisodiyot hamda kuchli ma'naviyatga ega Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida mamlakatimizda ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Ma'naviy hayotimizni yuksaltiradigan jihatlari orasida ona tilimiz va unda bitilgan milliy durdona asarlarning o'rnini beqiyos. Zaminimiz azal-azaldan bebaho ijodkorlarga shu qadar boyki, har bir davrni o'z qahramonlari bor. Shu o'rinda aytib o'tish joizki mustamlakachilik davrining fidoiy, millatsevar, vatanparvar qahramonlari bo'lgan jadidlarning millat dardi, xalqning orzu-istaklari, vatanga





mehr-muhabbati aks etgan asarlari, roman, piesalari bugun yoshlar uchun zo‘r hayot maktabi bo‘la oladi. Ma‘naviy kamolot, o‘zlikni anglash, tilimizni sevish, qadrlash uchun jadidlarning asarlariga quloq tutish kerak.

Chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning istilo qilinishi, uning moddiy va ma‘naviy boyliklarining talon-taroj etilishi, mustamlakachilik siyosati natijasida taraqqiyotdan yuz yillab ushlab turilishi o‘lka hayotini, xalqning turmush darajasini g‘oyatda qashshoqlashtirdi. Mustamlakachilar jadidlar ilgari surgan ijtimoiy-siyosiy, maorif, madaniyat, borasidagi islohatlarga ham to‘siqlar qo‘ydi va yo‘l bermadilar. Mustamlakachilar “Bo‘lib tashla, so‘ng hukumronlik” degan aqida (shior)ga amal qilganlari holda xonliklar o‘rtasidagi nizolarni kuchaytirishga, “jadid-qadim” o‘rtasidagi qaramaqarshilikni avj oldirishga bor e‘tiborni qaratdilar. Mutaassiblikning kuchayishi, o‘z qobig‘iga o‘ralib dunyo taraqqiyotidan bexabarlik Turkistonning og‘ir turmushini yanada og‘irlashtirib yubordi. Jaholatning kuchayishi, ilmdan yiroqlik, boylarning millat taqdiriga befarqligi jadid adabiyotida davrning dolzarb masalasi sifatida talqin etildi. Millat va milliy masalalar shu tariqa jadid adabiyotning bosh mavzusiga aylanib o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘ldi. Millatning o‘tmishi, og‘ir ahvoli, kelajak masalalari jadid ziyolilarini o‘yga toldirib, qayg‘uga soldirdi. Nega buyuk allomalar, sarkardalar yetishib chiqargan Turkiston o‘lkasi bugun og‘ir ahvolda, uning kelajagi shu holda turaversa qanday taraqqiy etadi degan savollar badiiy asarlarda ifodasini topdi.

Is‘hoqxon Ibrat “Bo‘libdur” radifli g‘azalida Turkistonning XX asrning 10-yillaridagi holatini batafsil yoritib beriladi. Turfa zamon kelganini, xaloyiqning fe‘li yamon bo‘lib, beandishaga aylanganini, madrasalarda fitna avj olganini, boylarda insofning yo‘qolganini, qassob-u nonvoylarda diyonat yo‘qolganini ifodalab beradi.

Ibrat o‘z she‘r va g‘azallarida musulmonlar o‘rtasida bunday ishlarning rivoj topishini o‘lkaning ruslar tomonidan bosib olinishi bilan bog‘laydi. Shoir millat taraqqiyotida ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo‘lishlik muhim o‘rin tutishini yaxshi anglaydi. XX asr boshlaridagi ushbu fan yutuqlarining “Tarixi traktor”, “Gazeta hususida”, “Tarixi chopxona”, “Tarixi vagon Ishoqxon Ibratdin” kabi she‘rlarida ifodalaydi.

Abdulla Qodiriyning “Millatimga bir qaror!” she‘rida shoir millatga murojaat qilib, elni ilmga rag‘bat qilishga, nodonlikdan xalos bo‘lishga chaqiradi:

Abdulhamid Cho‘lponning “Oqqodshoning in‘omi” hikoyasida shovinistik siyosat, chor hukumati va uning amaldorlarining Turkiston xalqlariga nopisand munosabati hayotiy voqelik asosida yoritiladi. Asarning asosiy qahramoni duradgor usta To‘xtash. Unga goranish (pristuf) mahkamasining mirzasi bo‘lgan Mulla





Shamsiddin “Turkiston viloyati gazetisi” da bosilgan Moskvada vistafka bo‘lishi haqidagi xabarni o‘qib beradi. Ushbu vistafkaga Sankt-Peterburg shahridan oqpodshoning o‘zlari kelar emish. Vistafkada o‘z hunarini ko‘rsatgan har bir fuqaroga shohona in‘omlar berar emish. Usta To‘xtash ushbu vistafkada ishtirok etmoqchi bo‘ladi. Uning yasagan buyumini Mulla Shamsiddinning o‘zi poshta orqali jo‘natishga va‘da beradi. Oradan bir hafta o‘tmasdan ichiga kattakon bir yog‘och kovush solingan posilka – pochta orqali Moskvaga jo‘nab ketadi. Yog‘och kovushni asliga qaraganda ikki uch baravar zo‘r qilib tayyorlagan va bir poyining bir yo‘g‘ini yelim bilan naridan-beri yopishtirib qo‘ygan ustaning o‘z dardi, shunga yarasha umidlari bor edi.

Usta To‘xtashning qora baxtiga vistafkaga oqpodsho kelmasdan, bir a‘yon (senator)ni yuboradi. U yog‘och kovushga qiziqadi va Moskva gubernatori qulog‘iga usta To‘xtashga tegishli in‘omni eshittiradi. Bu in‘om – “ispasiba” degan so‘z edi. Usta To‘xtash bu in‘omni olgach, viloyat gubernatori mo‘viniga oqpodshoning katta in‘omi o‘ziga og‘irlik qilishini, shuning uchun topshirmoqchi ekanini aytadi. Kinoyani anglagan gubernator usta To‘xtashga ikki yuz so‘m beradi.

Hikoya shunday yakunlanadi: “Katta in‘omni katta amaldorga qoldirib, ikki yuz so‘m pul bilan yumshoq vagonda o‘z shahriga qaytayotgan usta To‘xtash shu topda tovuq katagi bo‘lib turgan yopiqni daranglagan bir uyga aylantirishga qat‘iy qarorini bergan, faqat kimning qiziga sovchi qo‘yishni bilmay hayron edi”.

Ko‘rinadi-ki usta To‘xtashning puli ko‘payib darhol uyini dang‘illama qilish, ikkinchi xotin olish harakatiga tushadi. U bu mablag‘ni ilm yo‘lida sarflashni o‘ylab ham ko‘rmaydi. Hikoyada chor Rossiyasi amaldorlarining o‘lka xalqlariga nopisand munosabati ham mahorat bilan yoritilgan.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” roman-diologiyasining birinchi kitobi “Kecha” 1936-yilda O‘zbekiston davlat nashriyoti tomonidan alohida kitob holda nashr qilingan. Romanda chor Rossiyasining Turkistonning istilo qilgandagi, XX asrning boshlaridagi voqealar aks etgan. Chor Rossiyasi istilosi natijasida og‘ir ahvolga tushgan xalqning ayanchli ahvoli, mustamlakachilarning talonchilik siyosati romanda ishonarli yoritilgan. Mustamlakachilar o‘lkani ham moddiy, ham ma‘naviy jihatdan qashshoqlashtiradi. Millat erki haqida o‘ylab ham ko‘rmaydilar, ammo chor Rossiyasi Turkistonni qanchalik mustamlakada ushlab turishga intilmasin, oxir oqibat toliqadi, ichidan chiriq boshlaydi. Bu romanda o‘sha davr haqqoniy ravishda o‘z ifodasini topadi. Romanda milliylik masalasi Zebinisoning sudi tasvirida hayotiy tafsillar orqali talqin etiladi. Yoki Miryoqubning noyob kitoblarni rus amaldorlariga tortiq qilishini eshitgan jadid yigiti poyezda shunday tanqid qilar ekan, buni milliy



boylklarni talon-taroj qilish deb baholaydi. Jadid publisistikasida millat masalasi, uning dolzarb muammolari o'ziga xos tarzda tahlil etilgan.

Hoji Muinning "Yoshlarga murojaat", "Istiqbol qayg'usi", "Milliy tariximizni kim yozar?", "Yurt qayg'usi", "Bolsheviklar va biz", "To'y va aza marosimi haqida", "Yoshlar! Yurtning umidi yolg'uz sizgadir", "To'y ta'ziya isroflari" kabi maqolalarida millat va uning muammolari, u bilan bog'liq dolzarb masalalar yoritilgan.

Hoji Muinning "Yurt qayg'usi" maqolasi "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 10-noyabr sonida bosilgan. Unda shunday satrlar bor: "Ay turkistonli turk o'g'lonlarim! Endi turingiz! Jaholat uyqusidan uyg'oningizki, kichik qiyomat qo'pdi! Agar bu chog'da ham uyg'onmay o'zingizni asorat kishaningizdan, yoqangizni jaholat changalidan, yurtingizni dushmanlar tirnog'idan ajratib qutulmasangiz, so'ngra buyuk qiyomatda sizlarga tamug' yerindan boshqa yurt berilmas, zaqum oshindan bo'lak yemak, yedirilmaski, rasvoyi olam bo'lursiz.

Ay suyuqli o'g'lonlarim, uyg'oningiz! Uyg'oningiz! Tong otdi, endi uxlamog' xarom!.. Qiyomat qo'pdi, endi tik turmak mahol! Ana, tinglangiz! Hozirgi madaniyatning suri Isrofil, oxir zamonning muazzini ne der? Derki, "Hayya alal falah!"

Behbudiyning "Ehtiyoji millat" (1913) maqolasida ta'lim-tarbiya masalasi yoritilgan: "Boshqa millatga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablar bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy fan va ail lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra, illat boshqa millatlarga poymol bo'lur".

Behbudiy "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" (1913) maqolasida shunday yozadi: "Rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizning boylari doimo o'z millatlari uchun katta xayr va ehsonlar qiladurlar, inchunun, Kavkaz, Qirim, Qozondagi musulmon birodarlarimizning boylari, ulamosi va ahli qalami, sohibi fikri o'z birodarlariga mol, oqcha, qalam va ilm ila iona qiladurlar. Ammo bizning Turkistonda bu ishlardin so'ylamoqqa hanuz navbat kelgani yo'q. Har kim o'z naf'i va shaxsiy ishi ila sargardon, umumiy yoinki diniy va milliy ishlarni oyandasi uchun millatni zamona odamlaridek taraqqiy etmog'i uchun xaloyiqni isloh axloqi uchun g'am toruvchi va harakat etuvchi yo'qdir"

Shuningdek, Behbudiyning "Sart" so'zi ma'lum bo'lmadi" "Sart" so'zi majhuldir" nomli maqolalarida chor Rossiyasi amaldorlarining Turkiston xalqlarini bir umumiy nom bilan "sart" atashlarini qoralaydi. Bu Turkiston xalqlarini mensimalsikning alomati edi.





Behbudiyning “Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasida quyidagi kamchiliklar tanqid qilinadi: “To‘y va syrg‘a ko‘pkari chopmoq uchun o‘n – yigirma chaqirimga to‘y bo‘ladimi, har kim ishini, dehqonchiligini qoyub, otlanib ko‘pkariga ketar. Dehqon uchun oltundan aziz vaqt favd bo‘ldi – ketdi. Ekin birgina kun keyin sepilgani uchun pishmay qolar. Birgina kun so‘ngra yeg‘ilgani uchun yog‘inga qolib, ba‘zi xirmonlar chirib ketar.

Ma‘lum bir shaharda yahudiylar ba‘zan o‘luklarini oqshom eltib ko‘marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo‘lsa, o‘lik va to‘y uchun xaftalar, xatto, oylar ila ishdan qolurmiz”

Abdurauf Fitrat “Turkistonda ruslar” (1918) maqolasida chor Rossiyasi, bolsheviklarning mustamlakachilik siyosatini shunday tanqid qiladi: “Aflotunlar cho‘g‘inda Afina, Rumo saltanatida Rumo, abbosiyalar xalifotida Bog‘dod qancha tarqqiy qilgan bo‘lsa, Temur va Ulug‘beklar zamonida Samarqand shuncha tarqqiy qilgan edi.

Rus kopitalislari vilan rus po‘plarining sodiq va ishonchli qorovullari bo‘lgan eski Rusiya hukumati ellik yil orasida Turkistondagi turk bolalaring foydalarig‘a biror ish ko‘rdimi? Ko‘rmoqchi bo‘ldimi?

Mahkamalarda, uylarda, yo‘llarda, tijorat ishlarida, hatto vago‘n arobalarinda Turkiston yerlisining huquqi Turkiston musofiri bo‘lgan rus va armanidan tuban tutildi”.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki ma‘rifatparvar jadidlar adabiyotida millat va milliy masalalar keng yoritildi. Ularda millatning muammolari, urf odatlar, geografik joylashuv milliy qarashlardan kelib chiqib yoritildi va talqin etildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2005.
2. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1999.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni // Xalq so‘zi. – 2017-yil, 8-fevral.
4. Jumanova, S. (2023). USMON AZIM SHE‘RIYATIDA METAFORALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (11), 292-297.
5. Ikromjonovna, J. S., & Ikromjon o‘g‘li, P. H. (2024). ONA TILI VA O‘QISH DARSLARIDA PISA XALQARO DASTURIDAN FOYDALANISH. Kokand University Research Base, 242-249.



6. Sharafiddinov O. Cho'lpon. – Toshkent: Cho'lpon, 1991.
7. Ikromjonovna, J. S. (2024). XALQARO PISA TESTINING TA'LIMDAGI AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 266-269.
8. Saidov. A Jadid adabiyoti tarixi. T.: 2021.B.57.58.59.60.61.62.63.64.65
9. Maxliyoxon, O., & Shaxnozaxon, J. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. *ISBN-13*, 979-8324468415.
10. O Maxliyoxon. (2024). MODERN INTEGRATION OF PRIMARY EDUCATION, ART, PEDAGOGY AND INFORMATION COMMUNICATION. ISBN-13 : 979-8323781928 1, 158
11. Odilova, M. (2024). O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA PISA TESTINING ISTIQBOLLARI. *Nordic\_Press*, 3(0003).

